


## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 132733,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil etdi.


### 2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, trln. so'm



*Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 106,3 trln. so'mga teng bo'lgan.*

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 26,5 trln. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 13,8 trln. so'mga ko'paydi.

### 2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, trln. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (4,2 trln. so'mga), savdo xizmatlari (3,5 trln. so'mga), moliyaviy xizmatlar (2,1 trln. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (0,8 trln. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


*Ma'lumot uchun:* 2017 yilning mos davrida transport xizmatlari 3,7 trln. so'm, savdo xizmatlari 2,9 trln. so'm, moliyaviy xizmatlar 1,3 trln. so'mga oshgan.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>132733,7</b>	<b>108,8</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8835,5	116,4
moliyaviy xizmatlar	18898,1	127,0
transport xizmatlari	39351,1	104,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	19376,8	102,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3993,2	104,6
savdo xizmatlari	35804,9	104,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4229,6	103,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	4950,8	109,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1853,1	114,6
ijara xizmatlari	2826,4	107,8
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2369,2	103,8
shaxsiy xizmatlar	3388,3	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1997,0	126,8
boshqa xizmatlar	4236,5	107,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (127,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (126,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (109,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,7 %), kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,8 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismini transport xizmatlari tashkil etadi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 29,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni savdo xizmatlari (27,0 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %) egallaydi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





Ma'lumot uchun: Qirg'iziston Respublikasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining qariyb to'rt dan uch qismini avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda ulgurji va chakana savdo bo'yicha xizmatlar tashkil etadi. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida bu xizmatlarning ulushi 74,4 % ni tashkil etdi. Ushbu davrda transport faoliyati va yuklarni saqlash 7,3 %, aloqa va axborotlashtirish - 5,5 %, moliyaviy vositachilik va sug'urta - 3,5 % ulushni tashkil etdi.


O'zbekistonning geostrategik jozibadorligining eng muhim omili transport kommunikatsiyalarini rivojlangan tizimining mavjudligi hisoblanadi. Hozirgi paytda mamlakatning transport tizimi ichki tashish ehtiyojlarini to'liq qondiradi.

Mavjud temir yo'l va avtotransport kommunikatsiyalari tarmog'i respublikaning eng chekka hududlari va aholi punktlarini o'zaro ishonchli tarzda bog'laydi, xalqaro transport tizimlariga chiqishni ta'minlaydi, shuningdek mamlakat tabiiy va mineral-xom ashyo resurslarining asosiy manbalariga keng yo'l ochib beradi.

O'zbekiston xalqaro aviatsiya aloqalarini rivojlantirish borasida ham qulay joylashgan. Yevropa va Sharqiy Osiyo o'rtasida joylashgan respublikamiz yuk va yo'lovchilarni tranzit havo yo'li tashishlarini ta'minlovchi juda istiqbolli xalqaro transport markazi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (49,2 %) egallaydi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida quvurlar orqali tashish xizmatlarining ulushi 17,6 % ni tashkil etdi. Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar transport xizmatlari umumiy hajmida 13,7 % ni egallaydi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %




Yuk va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 11,5 % ni tashkil etadi.

Yordamchi transport faoliyatining ulushi transport xizmatlari umumiy hajmida 8,0 % ga yetdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 19376,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 2,8 % ga oshdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Eng yuqori ulush Toshkent shahri (17,0 %), Toshkent (13,6 %), Samarqand (11,7 %), Farg'ona (9,1 %), Andijon (8,7 %), Buxoro (7,3 %) va Qashqadaryo (7,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.




Sirdaryo viloyatida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulushi (1,7 %) qayd etildi.

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 71,9 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 28,1 % ni tashkil etdi.

### Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 35804,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 6954,3 mlrd. so'mga oshdi.


### Hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahri (11550,5 mlrd. so'm), Toshkent (3243,3 mlrd. so'm), Samarqand (2758,5 mlrd. so'm), Farg'ona (2737,6 mlrd. so'm), Andijon (2461,6 mlrd. so'm), Qashqadaryo (2132,6 mlrd. so'm) va Surxondaryo (2043,2 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 67,8 % ni tashkil etadi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 25,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,7 % ni egallaydi.

Zamonaviy biznes yuritish uchun hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish zarur talablardan hisoblanadi. Zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati - yirik bozorlar, Internet-tijorat, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalarni tizimli boshqarish, shuningdek, raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus ma'lumotlar bazalari hisoblanadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 16,4 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, %






Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (130,5 %), Samarqand (114,5 %), Namangan (114,3 %), Buxoro (114,1 %), Navoiy (114,0 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (119,0 %) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Sirdaryo (108,8 %), Jizzax (111,3 %) va Xorazm (111,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 85,0 % ni tashkil etadi.

### **2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



O'tgan yilga nisbatan Toshkent viloyati (33,1 %) va Toshkent shahrida (21,0 %) yuqori o'sish kuzatildi.

Sirdaryo viloyatida telekommunikatsiya xizmatlarining uncha yuqori bo'lmagan o'sishi qayd etildi. Bu erda o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil etdi.

*Ma'lumot uchun:* Speedtest Global Index ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda mobil Internet tezligi 9,93 Mbit/s. ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha respublikaning reytingi 124 mamlakat orasidan 110-o'ringacha ko'tarildi.

Dunyoda Internetning maksimal tezligi Norvegiya, Islandiya va Singapurda, eng pastisi esa Tojikistonda qayd etilgan. 123-o'rin Afg'onistonga nasib etdi. Qozog'iston 74-pozitsiyada, Qirg'iziston esa 94-pozitsiyada turibdi. Rossiya reytingda 80-o'rinni egalladi.


Simli Internet tezligi jihatidan mamlakatimiz ikki pozitsiyaga ko'tarildi va 8,69 Mbit/s. tezlik bilan 118-o'rinni egalladi.

Simsiz Internet tezligi bo'yicha O'zbekiston 112-chi o'rinni egalladi.

Xalqaro elektraloqa ittifoqining ma'lumotlariga ko'ra kiberxavfsizlik global reytingida (GCI) O'zbekiston barcha mamlakatlar ro'yxatida 93-o'rin va MDH davlatlari orasida 9-o'rinni egalladi. Bu mamlakatimiz AKT sohasida maksimal sa'y-harakatlarni amalga oshirayotganini va birinchi navbatda xavfsizlik bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Eng ko'p mobil aloqa xizmatlaridan aholi (jismoniy shaxslar) foydalanishadi - 97,3 %. Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishda yuridik shaxslarning ulushi 2,7 % ni tashkil etadi.

### Mobil aloqa abonentlari tarkibi, %



*Ma'lumot uchun:* We Are Social global media agentligi va HootSuite ijtimoiy tarmoqlarini boshqarish platformasi ishlab chiquvchisi ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yil oxiriga qadar internet foydalanuvchilari soni 4,021 mlrd. kishini (dunyo jami aholisining 53 %) tashkil etadi, bu 2017 yilning mos davriga nisbatan 7 % ga ko'pdir.

2017 yilda 200 milliondan ortiq kishi birinchi marta biror xil mobil qurilma sotib oldi. Shunday qilib, dunyo aholisining uchdan ikki qismidan ko'prog'i mobil telefonlarga (asosan smartfonlar) ega bo'ldi. 2018 yilda mobil telefon foydalanuvchilari soni 5,175 mlrd. kishini (68 %) tashkil etib, bu 2017 yilning mos davriga nisbatan 4 % ga ko'pdir.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 18898,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 127,0 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari





Hududlar orasida yuqori hajm Toshkent shahrida (10475,2 mlrd. so'm), shuningdek past hajm Sirdaryo viloyatida (275,4 mlrd. so'm) qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (152,0 %) viloyatida kuzatildi. Nisbatan past o'sish sur'ati Toshkent shahrida - 121,0 % qayd etildi.


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,0 %) katta salmoqqa egadir.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Hududlar orasida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar bo'yicha eng yuqori ulushni Surxondaryo (91,6 %), Qashqadaryo (91,4 %), Samarqand (91,2 %), Jizzax (91,2 %), Sirdaryo (91,1 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (91,2 %) egallaydi. Eng past ko'rsatkich Buxoro viloyatida (86,5 %) qayd etildi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi



2018 yil yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 1853,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi kuzatilib, o'sish sur'ati 114,6 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar o'sish sur'atlarining taqqoslanishi**



Eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (126,0 %), Toshkent (124,8 %) va Andijon (122,2 %) viloyatlarida kuzatildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning eng past o'sish sur'ati ko'rsatkichi Buxoro viloyati (101,6 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (102,1 %) qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida Farg'ona viloyatida (117,0 %) yuqori o'sish sur'ati qayd etilgan, eng past o'sish sur'ati esa Toshkent viloyatida (97,7 %) kuzatilgan.*

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 3993,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 4,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,0 % ga yetdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,4 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,6 % ga to'g'ri keladi.



**2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>132733,7</b>	<b>108,8</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4033,4	112,8
viloyatlar:		
Andijon	7221,9	107,6
Buxoro	5812,8	107,4
Jizzax	2875,2	114,5
Qashqadaryo	6321,9	107,3
Navoiy	3461,8	112,2
Namangan	5430,0	108,2
Samarqand	8991,5	108,1
Surxondaryo	4964,0	109,4
Sirdaryo	1759,9	110,4
Toshkent	9898,3	106,2
Farg'ona	8239,9	108,6
Xorazm	3960,5	108,1
Toshkent sh.	43443,3	111,8

Hududlar o'rtasida Toshkent shahri (43443,3 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Toshkent shahri bo'yicha 111,8 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Sirdaryo (1759,9 mlrd. so'm), Jizzax (2875,2 mlrd. so'm) va Navoiy (3461,8 mlrd. so'm ) viloyatlarida kuzatildi.

2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-noyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (114,5 %), Navoiy (112,2 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (112,8 %) va Toshkent shahrida (111,8 %), qayd etildi.


### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,2 %), Qashqadaryo (107,3 %), Buxoro (107,4 %), Andijon (107,6 %) , Xorazm va Samarqand (108,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Toshkent shahri (32,7 %), Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,8 %), Farg'ona (6,2 %) va Andijon (5,4 %) viloyatlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4038,0 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish 7,0 % ni tashkil qildi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar





Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida – 17507,6 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyatida kuzatilib, o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida – 1958,7 ming so'm qayd etildi.

#### **Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi**

**71-230-80-59**

**71-230-80-60**